



**TARIXIY MAKON VA TABIAT OBRAZINING TASVIRIY
SAN'ATDAGI UYG'UNLIGI
(Ko'hna Jayhun bo'yida kuz misolida)**

Panayeva Maloxat Muminovna

Urganch davlat pedagogika instituti "San'atshunoslik" kafedrası o'qituvchisi
maloxatpanayeva91@gmail.com

Rustamova Nigina Ruslanbek qizi

UrDPI Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi talabasi
rnigina358@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ko'hna Jayhun (Amudaryo) bo'yidagi kuz manzarasining tasviriy san'atdagi badiiy talqini, tarixiy makon va tabiat obrazining uyg'unligi masalalari yoritilgan. Tadqiqotda peyzaj janri misolida rang, kompozitsiya va badiiy ifoda vositalari orqali tarixiy xotira va tabiat go'zalligini aks ettirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur mavzuning bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonidagi pedagogik ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Ko'hna Jayhun, Amudaryo, peyzaj, tasviriy san'at, oltin kuz, tarixiy makon, rang, kompozitsiya.

Kirish. Tasviriy san'at inson va tabiat o'rtasidagi estetik munosabatlarni ifodalovchi muhim badiiy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, tarixiy makonlar bilan bog'liq tabiat manzaralari rassom tasavvurida chuqur ma'no kasb etadi. Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan Ko'hna Jayhun - Amudaryo bo'yi ana shunday ilhom manbalaridan biridir. Kuz fasli esa ranglarning boyligi, sokin kayfiyat va falsafiy mushohada uchun qulay sharoit yaratadi. Shu jihatdan "Ko'hna Jayhun bo'yida kuz" mavzusi tarixiy xotira va tabiat go'zalligini uyg'un holda tasvirlash imkonini beradi.

Jayxun - hozirgi Amudaryoning qadimgi nomlaridan biri. Qadimgi turk tilidan "Joy" va "Xun" so'zlaridan kelib chiqqan, Xunlar yashaydigan joy degan ma'noni anglatadi. Jayhun (Amudaryo) qadim zamonlardan buyon sivilizatsiyalar rivojida muhim rol o'ynagan daryo hisoblanadi. Uning bo'ylarida qadimgi Xorazm, Baqtriya va boshqa madaniyatlar shakllangan. Tarixiy manbalarda Jayhun hayot manbai, savdo





yo'llari va madaniy aloqalar markazi sifatida tilga olinadi. Shu sababli bu makon nafaqat geografik obyekt, balki xalq xotirasida saqlanib qolgan ramziy tushuncha sifatida ham ahamiyatlidir.

Tasviriy san'atda tarixiy makon obrazini yaratish rassomdan nafaqat tabiatni, balki o'sha hududning ruhini, o'tmish izlarini his etishni talab qiladi. Jayhun bo'yidagi qadimiy manzaralar, xarobalar, suv va qirg'oq tasvirlari orqali tarixiylik ifodalanadi.

Kuz fasli tasviriy san'atda ko'pincha "oltin davr" sifatida talqin qilinadi. Bu fasl ranglarning iliqqligi - sariq, oltin, jigarrang, qizg'ish tuslar bilan ajralib turadi. Jayhun bo'yidagi kuzgi manzara esa sokin suv sathi, barglari sarg'aygan daraxtlar va xiralashgan osmon bilan o'ziga xos kayfiyat hosil qiladi.



Jayhun (Amudaryo) nafaqat suv manbai, balki san'atda hayot oqimi ramzidir. Kuz faslida daryo suvi tiniqlashadi va osmonning moviy rangi unda aks etib, sarg'ish qirg'oqlar bilan kuchli kontrast (qarama-qarshilik) hosil qiladi. Bunday manzara rassomga ranglar uyg'unligini ochib berish, yorug'-soya o'yinlari orqali chuqur emotsional holatni ifodalash imkonini beradi. Kuzgi peyzaj ko'pincha falsafiy mushohada, vaqt o'tkinchiligi va tarix bilan bog'liq xotiralarni eslatadi.

Peyzaj janri tabiat manzarasini tasvirlash bilan birga, inson ruhiy holatini ham aks ettiradi. Ko'hna Jayhun bo'yidagi kuz manzarasini tasvirlashda rassom tarixiy makon va tabiat obrazini yagona kompozitsion tizimga birlashtiradi. Old, o'rta va orqa rejalarning to'g'ri joylashtirilishi makon chuqurligini ta'minlaydi.





Rang tanlovi esa mazmunni ochishda muhim rol o'ynaydi. Issiq ranglar orqali kuzning oltin nafasi beriladi, sovuq ranglar esa daryoning sokinligi va chuqurligini ta'kidlaydi. Shu tariqa tabiat manzarasi tarixiy xotira bilan uyg'unlashib, tomoshabinda estetik zavq va mulohaza uyg'otadi.

Mazkur mavzu bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida katta pedagogik ahamiyatga ega. Talabalar tarixiy makon va tabiatni uyg'un holda tasvirlash orqali milliy qadriyatlarni anglash, rang sezgirligini rivojlantirish va kompozitsion tafakkurni shakllantirish imkoniga ega bo'ladilar.

Shuningdek, "Ko'hna Jayhun bo'yida kuz" mavzusi o'quvchilarni atrof-muhitga estetik munosabatda bo'lishga, tabiatni asrash va tarixiy merosni qadrlashga undaydi. Bu esa tasviriy san'atning tarbiyaviy funksiyasini yanada kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, Ko'hna Jayhun bo'yidagi kuz manzarasi tasviriy san'atda tarixiy makon va tabiat obrazining uyg'unligini ochib beruvchi muhim badiiy mavzudir. Ushbu mavzu orqali rassom tabiat go'zalligi, ranglar uyg'unligi va tarixiy xotirani yagona badiiy obrazda mujassamlashtiradi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari uchun ushbu mavzu nafaqat akademik rangtasvir ko'nikmalarini shakllantirish, balki ularda vatanparvarlik va estetik madaniyatni yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Talabalar tabiatni kuzatish orqali uning nozik o'zgarishlarini ilg'ashni va uni tarixiy mazmun bilan boyitishni o'rganadilar.

Umuman olganda, Ko'hna Jayhun bo'yidagi kuz obrazini tasvirlash - bu tabiatning tashqi ko'rinishini shunchaki nusxalash emas, balki mintaqaning boy o'tmishi va betakror go'zalligini ranglar tili bilan tarannum etishdir. Bu kabi mavzular ustida ishlash bo'lajak mutaxassislarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga, milliy tasviriy san'atimiz an'alarini boyitishga xizmat qiladi.





Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdirasilov S., Tolipov N. “Rangtasvir”. – Toshkent: Bilim, 2005.
2. Bulatov S.S. “O‘zbekiston amaliy bezak san’ati”. – Toshkent: Mehnat, 1991.
3. Boymetov B., Abdirasilov S. “Chizmatasvir”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004.
4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. “Amudaryo” va “Peyzaj” maqolalari. - Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Amudaryo>

